ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ .....	1140
<b>Ходжаева Хадия Сулейманова</b>	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES .....	1146
<b>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</b>	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARNING USTUNLIGI .....	1151
<b>Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova MahliyoXon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
<b>Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich</b>	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	1163
<b>Mamatmurodov Alisher Saparboyevich</b>	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1172
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI .....	1178
<b>Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich</b>	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
<b>Uralov Shavkat Makhramovich</b>	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1188
<b>Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich</b>	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	1193
<b>No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li</b>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
<b>O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li</b>	



# QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI

## O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: [danik19953110@gmail.com](mailto:danik19953110@gmail.com)

ORCID: 0009-0001-9876-3780

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qurilish materiallari korxonalarida inqiroz shakllanishiga makroiqtisodiy va tarmoq omillarining ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (inflyatsiya darajasi, foiz stavkasi, valyuta kursi dinamikasi, YAIM o'sishi) hamda tarmoq omillari (qurilish hajmi, xomashyo narxlari, investitsiyalar oqimi, ishlab chiqarish tannarxi)ning korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'siri o'rganildi.

Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, tarmoq ko'rsatkichlari va moliyaviy indikatorlar asosida qiyosiy hamda tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot natijalari inflyatsiya va foiz stavkalarining o'zgarishi korxonalar likvidligi va rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, shuningdek, tarmoq ichidagi talab siklining pasayishi inqiroz xavfini oshiruvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi va investitsiya faolligining pasayishi esa ishlab chiqarish barqarorligiga muhim ta'sir etuvchi omillar sifatida aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishini makroiqtisodiy va tarmoq omillar integratsiyasi asosida baholashga qaratilgan kompleks yondashuvni taklif etishdan iborat. Olingan natijalar sohada inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlat iqtisodiy siyosatini optimallashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** inqiroz, makroiqtisodiy omillar, tarmoq omillari, qurilish materiallari sanoati, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, investitsiya faolligi.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the impact of macroeconomic and industry-specific factors on the formation of crisis processes in construction materials enterprises. The study examines the influence of key macroeconomic indicators (inflation rate, interest rate, exchange rate dynamics, GDP growth) as well as industry factors (construction volume, raw material prices, investment activity, production costs) on corporate financial stability.

The analysis is based on official statistical data, industry indicators, and financial metrics using comparative and systematic approaches. The findings indicate that changes in inflation and interest rates significantly affect firms' liquidity and profitability, while a decline in industry demand increases the likelihood of crisis risks. Additionally, the volatility of raw material prices and a decrease in investment activity are identified as important factors influencing production stability.

The scientific novelty of the study lies in proposing a comprehensive approach to assessing crisis formation in the construction materials industry through the integration of macroeconomic and sectoral factors. The results have practical implications for improving anti-crisis management mechanisms and optimizing economic policy.

**Keywords:** crisis, macroeconomic factors, industry factors, construction materials industry, financial stability, profitability, investment activity.



**Аннотация.** В данной статье проводится комплексный анализ влияния макроэкономических и отраслевых факторов на формирование кризисных процессов на предприятиях промышленности строительных материалов. В исследовании рассмотрено влияние макроэкономических показателей (уровень инфляции, процентная ставка, динамика валютного курса, темпы роста ВВП), а также отраслевых факторов (объёмы строительства, цены на сырьё, инвестиционная активность, производственные издержки) на финансовую устойчивость предприятий.

В процессе анализа использованы официальные статистические данные, отраслевые показатели и финансовые индикаторы с применением сравнительного и системного подходов. Результаты исследования показывают, что изменения инфляции и процентных ставок оказывают значимое влияние на ликвидность и рентабельность предприятий, а снижение отраслевого спроса выступает фактором усиления кризисных рисков. Кроме того, волатильность цен на сырьё и снижение инвестиционной активности оказывают существенное влияние на устойчивость производства.

Научная новизна исследования заключается в разработке комплексного подхода к оценке кризисообразующих факторов в отрасли строительных материалов на основе интеграции макроэкономических и отраслевых показателей. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования механизмов антикризисного управления и оптимизации экономической политики.

**Ключевые слова:** кризис, макроэкономические факторы, отраслевые факторы, промышленность строительных материалов, финансовая устойчивость, рентабельность, инвестиционная активность.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida qurilish sohasi real sektorning eng faol hamda multiplikativ ta'sirga ega tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qurilish materiallari sanoati ushbu tizimning asosiy tarkibiy bo'g'ini sifatida investitsion jarayonlar, infratuzilma rivoji va uy-joy qurilishi bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur tarmoqning barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik darajasi hamda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqiroz holatlari nafaqat alohida korxonalar faoliyatiga, balki butun iqtisodiyot barqarorligiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda global va milliy miqyosda makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, jumladan, inflyatsiya darajasining oshishi, foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi hamda valyuta kursidagi tebranishlar real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar yuqori kapitallashuv darajasi, uzoq ishlab chiqarish sikli va xomashyo bozoriga yuqori darajada bog'liqligi sababli ushbu omillarga ayniqsa sezgir hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi qurilish materiallari korxonalarida inqiroz shakllanishiga makroiqtisodiy va tarmoq omillarining ta'sirini aniqlash hamda ularning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligini baholashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun makroiqtisodiy omillarning korxonalar moliyaviy holatiga ta'sir mexanizmini aniqlash, tarmoq omillarining ishlab chiqarish barqarorligiga ta'sirini baholash, inqiroz xavfini kuchaytiruvchi asosiy determinantlarni aniqlash hamda inqirozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot obyekti sifatida qurilish materiallari sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar tanlangan bo'lib, tadqiqot predmeti mazkur korxonalarda inqiroz shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va tarmoq omillari tizimidan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, inqiroz xavfini erta aniqlash hamda davlat va korporativ darajada samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda inqiroz shakllanishi va uning omillarini o'rganish iqtisodiy nazariyada keng yoritilgan bo'lib, bu borada John Maynard Keynes, Milton Friedman hamda Edward I. Altman kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Keynes iqtisodiy sikllarni umumiy talab va investitsion faollik bilan bog'lab izohlagan bo'lsa, Friedman monetar omillar — pul massasi va foiz stavkalarining iqtisodiy barqarorlikdagi rolini asoslab bergan. Korxonalar darajasida esa Altman va William H. Beaver tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy diagnostika yondashuvlari korxonalarda inqiroz xavfini erta aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, Ben S. Bernanke va Mark Gertler kredit kanali orqali makroiqtisodiy omillarning real sektor faoliyatiga ta'sirini yoritgan, José Manuel Campa va Linda S. Goldberg esa valyuta kursi o'zgarishlarining import narxlarini orqali ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sirini empirik asosda ko'rsatgan. Bundan tashqari,

Eugene F. Fama iqtisodiy faollik va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan bo'lsa, Jorge Lopes hamda Les Ruddock qurilish sohasidagi investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab bergan. Ushbu ilmiy yondashuvlar qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishini makroiqtisodiy va tarmoq omillar uyg'unligida kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi.

Korxonalarda inqiroz shakllanishi masalasi iqtisodiy nazariyada turli yondashuvlar doirasida izohlanadi. Klassik va neoklassik nazariyalar iqtisodiy sikllarni talab va taklif muvozanatining buzilishi bilan bog'lasa, keynschilik yondashuvi investitsion faollikning pasayishi hamda umumiy talabning qisqarishini inqiroz omili sifatida talqin etadi.<sup>1</sup> Monetar nazariyaga ko'ra esa pul massasi, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasidagi o'zgarishlar iqtisodiy beqarorlikning asosiy determinantlari sifatida qaraladi.<sup>2</sup> Ushbu nazariy yondashuvlar real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligi makroiqtisodiy muhit bilan uzviy bog'liqligini asoslab beradi.

Korxonada darajasida inqirozni prognozlash masalasi moliyaviy diagnostika yondashuvlari asosida keng o'rganilgan. Xususan, Altman tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli korxonada moliyaviy ko'rsatkichlari asosida bankrotlik ehtimolini baholash imkonini beradi.<sup>3</sup> Keyingi tadqiqotlarda moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasidagi o'zgarishlar, jumladan, likvidlik darajasining pasayishi, rentabellikning qisqarishi hamda qarzdorlik yukining ortishi inqirozning erta indikatorlari sifatida talqin etiladi.<sup>4</sup> Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar asosan ichki moliyaviy omillarga yo'naltirilgan bo'lib, tashqi makroiqtisodiy muhit ta'siri ko'pincha cheklangan darajada yoritilgan.

So'nggi yillarda makroiqtisodiy omillar va korxonalar faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni empirik baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Tadqiqot natijalari inflyatsiya darajasining oshishi ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib kelishini, foiz stavkalarining yuqoriligi esa investitsion faollikni cheklashini ko'rsatadi.<sup>5</sup> Valyuta kursining o'zgaruvchanligi import xomashyosiga bog'liq tarmoqlarda xarajatlar darajasining oshishiga sabab bo'lishi aniqlangan.<sup>6</sup> YAIM o'sish sur'atlari esa real sektor daromatlari bilan bevosita bog'liq ekanligi bilan izohlanadi.<sup>7</sup>

Qurilish va qurilish materiallari sanoati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari alohida ta'kidlanadi. Mazkur tarmoq yuqori kapitallashuv darajasi, uzoq ishlab chiqarish sikli va investitsiyalarga kuchli bog'liqligi bilan tavsiflanadi.<sup>8</sup> Ayrim empirik izlanishlar natijalari qurilish hajmining pasayishi qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini, xomashyo narxlaridagi o'zgarishlar esa rentabellik darajasiga sezilarli ta'sir etishini ko'rsatadi.<sup>9</sup> Shuningdek, investitsiya faolligining pasayishi tarmoqda inqiroz jarayonlarining jadallashuviga olib kelishi mumkinligi qayd etiladi.<sup>10</sup>

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda makroiqtisodiy va tarmoq omillarining integratsiyalashgan ta'siri yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Ko'plab tadqiqotlar ushbu omillarni alohida yoki umumiy sanoat darajasida ko'rib chiqish bilan cheklanadi. Qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishini makroiqtisodiy va tarmoq omillar uyg'unligida tizimli baholash masalasi chuqur empirik tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muallif tomonidan ilgari surilayotgan masalaning o'ziga xosligi shundaki, mazkur tadqiqotda qurilish materiallari korxonalarida inqiroz shakllanishi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar doirasida emas, balki makroiqtisodiy va tarmoq omillar integratsiyasi asosida tizimli ravishda tahlil qilinadi. Amaldagi ilmiy ishlarda

- 1 Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 472 p. <https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/>.
- 2 Friedman M. The Role of Monetary Policy // American Economic Review. – 1968. – Vol. 58, No. 1. – P. 1–17. <https://www.jstor.org/stable/1831652>.
- 3 Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x>.
- 4 Beaver W.H. Financial Ratios as Predictors of Failure // Journal of Accounting Research. – 1966. – Vol. 4. – P. 71–111. <https://www.jstor.org/stable/2490171?origin=crossref>.
- 5 Bernanke B.S., Gertler M. Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission // Journal of Economic Perspectives. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 27–48. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.9.4.27>.
- 6 Campa J.M., Goldberg L.S. Exchange Rate Pass-Through into Import Prices // Review of Economics and Statistics. – 2005. – Vol. 87, No. 4. – P. 679–690. <https://direct.mit.edu/rest/article-abstract/87/4/679/57656/Exchange-Rate-Pass-Through-into-Import-Prices?redirectedFrom=fulltext>.
- 7 Fama E.F. Stock Returns, Expected Returns, and Real Activity // Journal of Finance. – 1990. – Vol. 45, No. 4. – P. 1089–1108. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1990.tb02428.x>.
- 8 Hällgren M., Wilson T.L. The Nature and Management of Crises in Construction Projects // International Journal of Project Management. – 2008. – Vol. 26, No. 8. – P. 830–838. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0263786307001780?via%3Dihub>.
- 9 Lopes J., Ruddock L. Investment in Construction and Economic Growth // Building Research & Information. – 2007. – Vol. 35, No. 3. – P. 233–245. <https://doi.org/10.1080/09613210601032294>.
- 10 World Bank. Global Economic Prospects. – Washington, DC: World Bank, 2023. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>.



inqiroz jarayonlari ko'pincha korxonaning ichki moliyaviy holati yoki umumiy makroiqtisodiy muhit kesimida alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa, mazkur maqolada ushbu omillar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqilib, ularning birgalikdagi ta'sir mexanizmi ochib beriladi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati qurilish materiallari sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda inqiroz shakllanishining tarmoq-spetsifik modelini ishlab chiqishga qaratilganligidadir. Qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayonining kapital sig'imdorligi, investitsion loyihalarga yuqori darajada bog'liqligi hamda talabning siklik tabiati ushbu tarmoqni boshqa sanoat tarmoqlaridan ajratib turadi. Shu sababli inqiroz omillarini umumiy sanoat darajasida baholash yetarli natija bermaydi va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqotda makroiqtisodiy omillar (inflyatsiya darajasi, foiz stavkasi, valyuta kursi dinamikasi, YAIM o'sish sur'atlari) hamda tarmoq omillari (qurilish hajmi, xomashyo narxlar, investitsiya faolligi, ishlab chiqarish tannarxi)ning korxonalar moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqligi kompleks yondashuv asosida baholanadi. Ushbu yondashuv inqiroz xavfini erta aniqlash hamda uni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Makroiqtisodiy muhitni baholashda inflyatsiya darajasi, asosiy foiz stavkasi, milliy valyuta kursi dinamikasi hamda YAIM o'sish sur'atlari asosiy determinantlar sifatida qabul qilindi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, inflyatsiya darajasining oshishi ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir ko'rsatadi va real daromadlar dinamikasini shakllantiradi.<sup>11</sup> Foiz stavkalarining yuqoriligi kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini cheklab, investitsion faollik darajasiga ta'sir etadi.<sup>12</sup> Valyuta kursining o'zgaruvchanligi esa import xomashyosiga bog'liq tarmoqlarda xarajatlar darajasining o'zgarishiga sabab bo'ladi.<sup>13</sup> YAIM o'sish sur'atlari iqtisodiy faollikning umumiy indikatorlaridan biri bo'lib, real sektor daromadlari bilan bevosita bog'liqdir.<sup>14</sup>

Qurilish materiallari sanoati makroiqtisodiy sharoitga sezgir tarmoqlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari qurilish hajmining o'zgarishi qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.<sup>15</sup> Mazkur tarmoq investitsion jarayonlarga yuqori darajada bog'liq bo'lib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmi va rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etadi.<sup>16</sup>

Shuningdek, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Empirik tadqiqotlar natijalari qurilish materiallari sanoatida narxlar dinamikasi rentabellik darajasiga va likvidlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etishini ko'rsatadi.<sup>17</sup> Bunday sharoitda korxonalar moliyaviy barqarorligi joriy likvidlik, rentabellik va qarzdorlik darajasi ko'rsatkichlari orqali kompleks baholanadi.<sup>18</sup>

Mazkur tadqiqotda 2014–2023-yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tanlangan davr valyuta siyosatining liberallasuvi, global pandemiya davridagi iqtisodiy jarayonlar hamda tiklanish bosqichini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Jahon banki va xalqaro tadqiqotlar natijalari pandemiya davrida qurilish va unga bog'liq tarmoqlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatadi, bu esa tarmoqning tashqi omillarga sezgirligini yana bir bor tasdiqlaydi.<sup>19</sup>

Shunday qilib, shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi makroiqtisodiy muhit, tarmoq rivoji va korxonalar moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv inqiroz shakllanish jarayonini alohida omillar kesimida emas, balki ularning tizimli o'zaro ta'siri doirasida talqin etishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari korxonalarida inqiroz shakllanish mexanizmi. Qurilish materiallari sanoatida inqiroz, odatda, to'satdan yuzaga kelmaydi; u makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, tarmoq talabi dinamikasidagi tebranishlar hamda korxonalar moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda bosqichma-bosqich shakllanadi. Iqtisodiy nazariyada inqirozlar ko'pincha tashqi shoklar va ichki nomutanosibliklarning

11 Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – 1936. <https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/>.

12 Bernanke B.S., Gertler M. Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission // JEP, 1995. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.9.4.27>.

13 Campa J.M., Goldberg L.S. Exchange Rate Pass-Through into Import Prices // Review of Economics and Statistics, 2005. <https://direct.mit.edu/rest/article-abstract/87/4/679/57656/Exchange-Rate-Pass-Through-into-Import-Prices?redirectedFrom=fulltext>.

14 Fama E.F. Stock Returns, Expected Returns, and Real Activity // Journal of Finance, 1990. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1990.tb02428.x>.

15 Lopes J., Ruddock L. Investment in Construction and Economic Growth // Building Research & Information, 2007.

16 World Bank. Global Economic Prospects, 2023. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>.

17 Hällgren M., Wilson T.L. Crisis Management in Construction Projects // IJPM, 2008. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0263786307001780?via%3Dihub>.

18 Altman E.I. Financial Ratios... // Journal of Finance, 1968. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x>.

19 World Bank. Global Economic Prospects – Pandemic Impact Section, 2020–2022 <https://www.worldbank.org/ext/en/home>.

o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin etiladi.<sup>20</sup> Inqiroz jarayonining dastlabki bosqichi makroiqtisodiy bosimning kuchayishi bilan tavsiflanadi: inflyatsiya darajasining oshishi ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa energiya va xomashyo xarajatlari tez o'zgaradigan tarmoqlarda bu omil yanada sezilarli namoyon bo'ladi; foiz stavkalarining oshishi esa kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklab, kapital sig'imgor tarmoqlar, jumladan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.<sup>21</sup> Keyingi bosqichda tarmoq talabi dinamikasining pasayishi kuzatiladi: qurilish sohasi investitsiyalarga yuqori darajada bog'liq bo'lgani sababli umumiy iqtisodiy faollik susayganda ushbu yo'nalishda faollik pasayadi, bu esa qurilish materiallariga bo'lgan talabning qisqarishiga, ishlab chiqarish hajmining mos ravishda o'zgarishiga, ombor zaxiralarning ortishiga va realizatsiya sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi.<sup>22</sup>

Jarayonning keyingi bosqichi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan ifodalanadi: talab dinamikasining pasayishi va xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlar fonida korxonalarining rentabellik darajasi o'zgaradi, likvidlik ko'rsatkichlari bosim ostida qoladi, qarzdorlik yukining ortishi esa moliyaviy risklarni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.<sup>23</sup> Moliyaviy diagnostika yondashuvlariga ko'ra, aynan ushbu bosqichda inqirozning erta belgilarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Korxonalarda xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda bozor segmentlarini diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy nomutanosibliklarning chuqurlashuvining oldini olish mumkin. Makroiqtisodiy bosim, tarmoq talabi dinamikasidagi pasayish va ichki moliyaviy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar birgalikda namoyon bo'lganda jarayon tizimli xususiyat kasb etadi, bunda ishlab chiqarish hajmi, to'lov qobiliyati va umumiy barqarorlik ko'rsatkichlari o'zgaradi.<sup>24</sup> Qurilish materiallari sanoatining muhim xususiyati shundaki, inqiroz jarayoni ko'pincha kechikib namoyon bo'ladi; investitsion loyihalarning uzoq muddatli xarakteri sababli talabdagi o'zgarishlar darhol emas, balki ma'lum vaqt o'tib ishlab chiqarish ko'rsatkichlarida aks etadi, shu bois mazkur tarmoqda inqiroz diagnostikasini erta bosqichda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida makroiqtisodiy muhit, tarmoq ko'rsatkichlari va korxonalar moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda tahlil qilindi va olingan natijalar qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishi ko'p omilli hamda bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon ekanligini ko'rsatdi. Tahlil natijalariga ko'ra, inflyatsiya darajasining o'zgarishi ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa energiya resurslari va transport xarajatlari tarkibidagi dinamik o'zgarishlar korxonalar xarajatlar tuzilmasiga sezilarli ta'sir etadi;<sup>25</sup> foiz stavkalarining o'zgarishi kapital sig'imgor tarmoqlarda investitsiya faolligi darajasini belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi, chunki qurilish materiallari sanoati ko'pincha kredit resurslari hisobiga modernizatsiya va ishlab chiqarishni kengaytirish jarayonlarini amalga oshiradi;<sup>26</sup> valyuta kursi dinamikasi esa import uskunalar va ayrim xomashyo turlariga bog'liq korxonalar uchun xarajatlar tarkibining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.<sup>27</sup> YAIM o'sish sur'atlari umumiy iqtisodiy faollikning muhim indikator bo'lib, uning dinamikasi qurilish hajmi va mos ravishda qurilish materiallariga bo'lgan talab bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.<sup>28</sup>

Tarmoq omillari tahlili qurilish hajmi indeksi bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi: qurilish hajmi dinamikasining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etadi, natijada realizatsiya jarayonlari va zaxiralar boshqaruvi ko'rsatkichlari shakllanadi;<sup>29</sup> investitsiya faolligi darajasining o'zgarishi tarmoqning modernizatsiya imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi, chunki qurilish va infratuzilma investitsiyalari iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq; xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi esa rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.<sup>30</sup>

Umuman olganda, tahlil natijalari qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishi alohida bir omil bilan emas, balki makroiqtisodiy muhit va tarmoq omillari o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Bunda korxonalar ichki boshqaruv samaradorligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish, risklarni diversifikatsiya qilish va strategik rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyati kengayadi.

20 Kindleberger C.P. Manias, Panics, and Crashes: A History of Financial Crises. – 1978.

21 Bernanke B.S., Gertler M. Credit Channel... – 1995. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.9.4.27>.

22 World Bank. Global Economic Prospects. – 2023.

23 Altman E.I. Financial Ratios... – 1968.

24 Hällgren M., Wilson T.L. Crisis Management in Construction Projects. – 2008. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0263786307001780?via%3Dihub>.

25 Keynes J.M. The General Theory... – 1936.

26 Bernanke B.S., Gertler M. Credit Channel... – 1995 <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.9.4.27>.

27 Campa J.M., Goldberg L.S. Exchange Rate Pass-Through... – 2005. <https://direct.mit.edu/rest/article-abstract/87/4/679/57656/Exchange-Rate-Pass-Through-into-Import-Prices?redirectedFrom=fulltext>.

28 Fama E.F. Stock Returns... – 1990. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/j.1540-6261.1990.tb02428.x>.

29 World Bank. Global Economic Prospects. – 2023.

30 Lopes J., Ruddock L. Investment in Construction and Economic Growth. – 2007.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishi ko'p omilli va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Inqiroz jarayoni alohida bir makroiqtisodiy yoki ichki moliyaviy omil natijasi sifatida emas, balki makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, tarmoq talabi dinamikasi hamda korxonalar moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Makroiqtisodiy omillar orasida inflyatsiya darajasi va foiz stavkalarining o'zgarishi ishlab chiqarish tannaxsining shakllanishiga hamda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Valyuta kursi dinamikasi import xomashyoga bog'liq korxonalar xarajatlari tarkibiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. YAİM o'sish sur'atlari esa umumiy iqtisodiy faollik darajasini aks ettirgan holda qurilish hajmi va mos ravishda qurilish materiallariga bo'lgan talab bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Tarmoq omillari tahlili qurilish ishlari hajmi dinamikasi va investitsiya faolligi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Qurilish hajmi ko'rsatkichlarining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmi, realizatsiya jarayonlari va rentabellik darajasiga bevosita ta'sir etadi. Xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi esa tannax dinamikasini shakllantiruvchi muhim omil bo'lib, moliyaviy risk darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanish mexanizmi tashqi makroiqtisodiy omillar va ichki tarmoq xususiyatlarining o'zaro ta'siri asosida rivojlanishini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv inqiroz jarayonlarini erta bosqichda aniqlash hamda ularni samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu asosda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xususan foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi dinamikasini muvozanatli boshqarishga qaratilgan pul-kredit siyosatini izchil yuritish, tarmoq monitoring tizimini takomillashtirish orqali qurilish hajmi, investitsiya oqimi va xomashyo narxlarini dinamikasini muntazam kuzatib borish, korxonalarda risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi va qarzdorlik yukini optimallashtirish hamda investitsiya faolligini rag'batlantirish orqali asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek importga qaramlikni kamaytirish maqsadida mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishini makroiqtisodiy va tarmoq omillar integratsiyasi asosida tizimli tahlil qilish orqali mavjud ilmiy yondashuvlarni boyitadi. Olingan natijalar real sektor korxonalarida inqiroz xavfini erta diagnostika qilish hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936. – 472 p. – URL: <https://www.marxists.org/reference/subject/economics/keynes/general-theory/> (murojaat qilingan sana: 18.02.2026).
2. Friedman, M. *The Role of Monetary Policy* // *American Economic Review*. – 1968. – Vol. 58, No. 1. – P. 1–17. – URL: <https://www.jstor.org/stable/1831652> (murojaat qilingan sana: 18.02.2026).
3. Altman, E. I. *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy* // *Journal of Finance*. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609. – DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x>.
4. Beaver, W. H. *Financial Ratios as Predictors of Failure* // *Journal of Accounting Research*. – 1966. – Vol. 4. – P. 71–111. – DOI: <https://doi.org/10.2307/2490171>.
5. Bernanke, B. S., Gertler, M. *Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission* // *Journal of Economic Perspectives*. – 1995. – Vol. 9, No. 4. – P. 27–48. – DOI: <https://doi.org/10.1257/jep.9.4.27>.
6. Campa, J. M., Goldberg, L. S. *Exchange Rate Pass-Through into Import Prices* // *Review of Economics and Statistics*. – 2005. – Vol. 87, No. 4. – P. 679–690. – DOI: <https://doi.org/10.1162/003465305775098189>.
7. Fama, E. F. *Stock Returns, Expected Returns, and Real Activity* // *Journal of Finance*. – 1990. – Vol. 45, No. 4. – P. 1089–1108. – DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1990.tb02428.x>.
8. Hällgren, M., Wilson, T. L. *The Nature and Management of Crises in Construction Projects* // *International Journal of Project Management*. – 2008. – Vol. 26, No. 8. – P. 830–838. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2007.11.003>.
9. Lopes, J., Ruddock, L. *Investment in Construction and Economic Growth* // *Building Research & Information*. – 2007. – Vol. 35, No. 3. – P. 233–245. – DOI: <https://doi.org/10.1080/09613210601032294>.
10. World Bank. *Global Economic Prospects*. – Washington, DC: World Bank, 2023. – URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects> (murojaat qilingan sana: 18.02.2026).

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)